



## TURKIY TILLARDA SHEVASHUNOSLIK VA ADBIY TIL ME'YORLARI

*Farg'ona davlat universiteti chet tillari fakulteti 1-bosqich talabasi*

***Solijonova Gulnoza Sherzodjon qizi***

*Farg'ona davlat universiteti ingliz tili amaliy kursi kafedrası kata o'qituvchisi*

***Karimjonova Shahlo Ravshanovna***

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada turkiy tillarda shevashunoslik va adabiy til me'yorlari masalasi tarixiy-tilshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Turkiy tillar oilasining ichki xilma-xilligi, mintaqaviy shevalarning lingvistik xususiyatlari, ularning adabiy til shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada o'zbek, turk, qozoq tillari misolida shevalarning fonetik, leksik va grammatik jihatlari solishtirma asosda yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy davrda globallashtirish, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarning adabiy tilga ta'siri hamda shevalarning saqlanishi va rivojlanishiga oid muammolar muhokama etiladi. Tadqiqot natijasida adabiy til me'yorlarini saqlagan holda, shevalarni lingvistik boylik sifatida o'rganish va qo'llash zarurligi asoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *turkiy tillar, shevashunoslik, adabiy til, dialect, til me'yorlari, lingvistik tahlil.*

**Abstract:** *This article examines the issue of dialectology and literary language norms in Turkic languages from a historical-linguistic perspective. The internal diversity of the Turkic language family, the linguistic features of regional dialects, and their influence on the formation of literary language are analyzed. The article compares the phonetic, lexical, and grammatical aspects of dialects in Uzbek, Turkish, and Kazakh languages. Moreover, the impact of globalization, mass media, and digital platforms on literary language and the preservation and development of dialects in the modern era are discussed. The research concludes*



*that it is essential to study and apply dialects as a linguistic wealth while preserving literary language norms.*

**Keywords:** *Turkic languages, dialectology, literary language, dialect, language norms, linguistic analysis.*

**Аннотация.** *В статье рассматривается проблема диалектологии и литературных норм языка в тюркских языках с историко-лингвистической точки зрения. Анализируются внутреннее разнообразие тюркской языковой семьи, лингвистические особенности региональных диалектов и их влияние на формирование литературного языка. В статье сравниваются фонетические, лексические и грамматические особенности диалектов узбекского, турецкого и казахского языков. Кроме того, обсуждается влияние глобализации, средств массовой информации и цифровых платформ на литературный язык, а также проблемы сохранения и развития диалектов в современную эпоху. Исследование показывает, что для сохранения литературных норм языка необходимо изучать и использовать диалекты как лингвистическое богатство.*

**Ключевые слова:** *тюркские языки, диалектология, литературный язык, диалект, языковые нормы, лингвистический анализ.*

Turkiy tillar — hozirgi va qadimgi turkiy ellar va elatlarning tillari. Asosan, O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, XXR, Afg‘oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Shimoliy Makedoniya, Albaniya, AQSh, Saudiya Arabistoni va boshqa bir





qancha mamlakatlarda tarqalgan. O'tgan asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra, Turkiy tillarda so'zlashuvchilarning umumiy soni 130 million kishidan ortiq. Turkiyada ko'pchilik bilan turkiy tillar o'rniga turk lahjalari atamasi qabul qilinadi. Turkiya, Ozarbayjon, O'zbek va shuningdek hammasi turk tilining lahjalari hisob qilinadi. Turk tili deganda Turkiya turkchasi emas, butun lahjalarni qamraydigan til sifatida tushuniladi. Ba'zi olimlar Turkiy tillarni mo'g'ul tillari hamda tungus manjur tillari bilan birga qo'shib, oltoy tillari oilasiga birlashtiradilar. Ye.D.Polivanov, G.Y. Ramstedt kabi tilshunoslarning fikricha, ushbu tillar oilasi koreys va yapon tillarini qo'shish hisobiga kengayishi mumkin. Oltoy nazariyasiga ko'ra, Turkiy tillarning tarixi oltoy tillari bir til bo'lib tashkil topgan qadim zamondan — oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobotili (asos til) dastlab 2 ga — tungusmanjur va turkmo'g'ul tillariga, so'ngra turkmo'g'ul tili ham 2 ga — turk va mo'g'ul tillariga ajralgan. Lekin Turkiy tillarning oltoy tillariga genetik aloqadorligi haqidagi masala hamon faraz darajasida qolmoqda. Turkiy tillar deganda, Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bir chiziq bo'ylab cho'zilgan ulkan geografik hududda tarqalgan o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, saxa (yoqut), tuva, xakas, oltoy, karagas, shor, turkman, ozarbayjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, qo'miq, no'g'ay, qorachoybolqor, tofalar, chuvash kabi 25 dan ortiq til tushuniladi. Turkiy tillar hozirgi tarqalish geografiyasiga ko'ra, quyidagi mintaqalarga ajratiladi: O'rta va Janubiy.

Adabiy til — bu me'yorlangan, ijtimoiy jihatdan tan olingan til shakli bo'lib, muloqot, rasmiy yozishmalar, adabiyot va ta'lim sohalarida faol qo'llanadi. Shevalar esa ko'proq og'zaki nutqda, kundalik muloqotda ishlatiladigan, mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lgan til shakllaridir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv davrida adabiy til me'yorlarini saqlab qolish bilan birga, shevalarni o'rganish, tahlil qilish va qadrlash ham zamonaviy til siyosatining ajralmas qismiga aylangan.



Shevashunoslik — tilning hududiy ko‘rinishlari bo‘lgan shevalarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Nazar Rajabovning tadqiqotlarida o‘zbek shevalari fonetik, morfologik va leksik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Unga ko‘ra, o‘zbek shevalari uch asosiy guruhga: shimoliy, janubiy va sharqiy guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh o‘zining fonetik va grammatik jihatlari bilan ajralib turadi, bu holat esa adabiy til me‘yorlarining shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Rajabov shevalarning tarixiy ildizlarini qadimiy turkiy manbalar, xususan, Mahmud Koshg‘ariy asarlari orqali yoritadi. U, shuningdek, adabiy til va shevalar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni, til siyosati kontekstida o‘rganib, shevalarning faqat og‘zaki nutq shakli emas, balki yozma til taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutishini asoslaydi. Turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rni alohida e‘tiborga loyiqdir. Qadimgi yozma manbalarda uchraydigan ko‘plab leksik birliklar bugungi o‘zbek shevalarida o‘z aksini topgan. Bu holat tilning uzviyligi, meros davomiyligi va tarixiy qatlamlarning zamonaviy muloqotda yashab kelayotganini ko‘rsatadi. Qadimgi turkiy yodgorliklar — “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit-turk”, “Orxon-Yenisey bitiklari” tilshunoslik tarixida muhim manba hisoblanadi. Bu asarlar o‘sha davrdagi xalq tilini, adabiy me‘yorni va shevalarning izlarini saqlagan. Jumladan: “Qutadg‘u bilig”da qo‘llangan \**“qonuq”*\* so‘zi “mehmon” ma‘nosida keladi. Hozirda bu so‘z Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarida aynan shu ma‘noda ishlatiladi. “Devonu lug‘otit-turk”da \**“ariğ”*\* so‘zi “toza” degan ma‘noni bildiradi. Bu shakl Xorazm shevalarida saqlanib qolgan. Bu so‘zlarning fonetik va semantik o‘zgarishlari tahlil qilinganda, til evolyutsiyasi davomida ularning bir qismi adabiy tilga singib ketgan, ayrimlari esa faqat shevalarda saqlanib qolgan.

Qadimgi  
shakl

O‘zbekcha  
(shevada)

Turkcha

Qozoqcha

Ma‘nosi



Qonuq	Mehmon (Qashqadaryo)	Misafir	Qonaq	Mehmon
Arĭğ	Toza (Xorazm)	Arı	Taza	Pok, toza
Bağram	Qumtepa	Kumtepe	Qumsha	Qumlik, tepa
Yaruk	Yorug‘ (Surxondaryo)	Işık	Jaryq	Yorug‘lik, nur
Bilig	Bilim (Buxoro)	Bilgi	Bilik	Bilim, ma'lumot

Bu hodisa Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy migratsiyalari bilan izohlanadi.

Shevashunoslik faqatgina mintaqaviy nutqni emas, balki tarixiy til qatlamlarini, adabiy tilga o'tgan yoki unda saqlanmagan so'zlarni o'rganish imkonini beradi. Turkiy yozma yodgorliklardagi so'zlarning o'zbek shevalarida saqlanib qolishi bu shevalarning qadimiylik darajasini ko'rsatadi. Bu jihatdan o'zbek shevalari — turkiy tillar tarixining tirik guvohi hisoblanadi. Kelgusida turli mintaqalarda o'tkaziladigan ekspeditsiyalar, matnlar korpuslarini solishtirish, va yozma manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali til taraqqiyoti va tarixini chuqurroq o'rganish mumkin bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov, N. (2004). O'zbek shevashunosligi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Nizamov, I. (2010). O'zbek tili shevalari va ularning adabiy tilga ta'siri. Toshkent: Fan.



3. Iskandarov, O. (2002). Turkiy yozma yodgorliklarning tilidagi ayrim soʻzlarning oʻzbek shevalarida qoʻllanishi. Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti.

4. Maxmudov, M. (2001). Qutadgʻu bilig va uning tilshunoslikdagi oʻrni. Toshkent: Oʻzbekiston Yozuvchilari.

5. Shomurodov, F. (2003). Devonu lugʻotit-turk va uning oʻzbek tili bilan bogʻliq jihatlari. Toshkent: Sharq.